



THE DECLINE OF THE ASHTARKHANID DYNASTY AND THE FACTORS BEHIND THE DISINTEGRATION OF THE BUKHARA KHANATE

Abror Makhammadiev

Course Leader for Pre-School Education, Primary Education, Special Pedagogy, and Psychology

*Kimyo International University in Tashkent
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: Ashtarkhanid, Bukhara, khanate, capital, Ubaydullakhan, Abulfayzkhan, dynasty, weakening, decline, Iran, Nadir Shah, invasion, Muhammad Hakim, Mangit, Amu Darya.

Received: 19.01.25

Accepted: 21.01.25

Published: 23.01.25

Abstract: The article analyzes the policies of the Ashtarkhanid rulers, the reforms implemented by the last Ashtarkhanid rulers, and their consequences. It also examines, based on existing sources, the internal and external factors that led to the decline of the state during the reigns of Ubaydullakhan and Abulfayzkhan.

ASHTARXONIYLAR SULOLASINING INQIROZI VA BUXORO XONLIGINING YEMIRILISH OMILLARI

Abror Maxammadiyev

"Maktabgacha ta'lim, Boshlang'ich ta'lim, Maxsus pedagogika va Psixologiya" yo'nalishlari rahbari (dekani)

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Ashtarxoniylar, Buxoro, xonlik, poytaxt, Ubaydullaxon, Abulfayzxon, sulola, zaiflashuv, tanazzul, Eron, Nodirshoh, bosqin, Muhammad Hakim, mang'it, Amudaryo.

Annotatsiya: Maqolada ashtarxoniylar hukmdorlarning olib borgan siyosati, so'nggi ashtarxoniylarning amalga oshirgan islohotlari va uning oqibatlari tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada Ubaydullaxon va Abulfayzxon davrida davlatning tanazzuliga olib kelgan ichki va tashqi omillar mavjud manbalar asosida o'rganilgan.

ФАКТОРЫ КРИЗИСА ДИНАСТИИ АШТАРХАНИДОВ И РАЗРУШЕНИЯ БУХАРСКОГО ЭМИРАТА

Аброр Махаммадиев

Руководитель (декан) направлений дошкольного образования, начального образования, специальной педагогики и психологии

Ташкентского международного университета Кимё

Ташкент, Узбекистон

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Аштарханиды, Бухара, ханство, столица, Убайдулла-хан, Абулфайз-хан, династия, ослабление, упадок, Иран, Надир-шах, вторжение, Мухаммад Хаким, Мангит, Амударья.	Аннотация: В статье анализируется политика правителей Аштарханидов, реформы, проведенные последним Аштарханидом, и их последствия. В статье, также на основе имеющихся источников изучаются внутренние и внешние факторы, приведшие к упадку государства в период правления Убайдулла-хана и Абулфайз-хана.
---	---

Buxoro xonligida ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvining zaiflashuvi yangi sulolaning hokimiyat tepasiga kelishiga zamin yaratdi. Albatta, bu tanazzulning ichki va tashqi omillari mavjud edi. Dastlab ichki omillarni tahlil qilib ko'rsak.

XVIII asrdan boshlab xonlikda chuqur inqiroz holati kuzatildi. Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi no'noqlik siyosati mamlakat yaxlitligiga putur yetkazdi. Abulfayzxonning qo'lida real hokimiyat yo'q bo'lib, amalda hokimiyat nazorati yirik qabila sardorlari qo'l ostida edi. Davlatda o'zboshimchalik, boshboshdoqlik, o'zbek qabila-urug'lari o'rtasida hokimiyat uchun kurash, ayrim hududlarning mustaqillikka bo'lgan intilishining kuchayishi bilan bog'liq holatlar Buxoroni ham ichki, ham tashqi siyosatda to'la tanazzul yoqasiga olib keldi. Jamiyat hayotida bunday muammolarning yuzaga kelishiga asosiy sabablardan biri ashtarxoniylar sulolasining so'nggi vakili Abulfayzxonning davlatni boshqarishdagi roli pasayganligi va uning yetarli boshqaruv qobiliyatiga ega emasligida edi. Aslida, u hali bola paytlardayoq taxtga olib chiqilib, atrofidagi kuchli amirlar va sarkardalar qurshovida, ularning ma'lum bosimi ostida davlatni boshqarishi xonning sekin-asta erishiladigan qudratiga to'siq bo'lgandi.

Amirlik davlat tuzumini maxsus tadqiq etgan huquqshunos olim Jo'rabek Shodiyevning yozishicha, obyektiv sabablar bilan bir qatorda, mamlakatda bunday xavfli vaziyatning yuzaga kelishiga quyidagi uchta subyektiv omil va voqealar ham muayyan darajada o'zining ta'sirini o'tkazgan [11, 16-17]: xonlikning muhim hududiy markazlaridan biri hisoblangan hamda mamlakatning asosiy iqtisodiy, ma'rifiy va harbiy resurslari joylashgan Samarqandning xonning asosiy raqiblaridan biri bo'lgan Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi; nomusulmon bo'lgan jung'orlar quvg'inidan qochgan qozoq ulamolariga nisbatan xon hokimiyati tomonidan yetarli

e'tibor bo'lmagani va buning oqibatida musulmonlar o'rtasida katta obro'ga ega bo'lgan ushbu ulamolarning yetti yil davomida sargardonchilikda bo'lishlari aholining xonga bo'lgan hurmat-e'tibori yo'qolishiga olib kelgani; xonning bevosita yo'l qo'yib berishi natijasida Ibodullo xitoy va uning tarafdorlari tomonidan muqaddas qadamjo hisoblanadigan Xoja Bahovuddin xonaqosining vayron etilishi aholining kuchli noroziligi kelib chiqishiga sabab bo'lgani.

Ubaydullaxonning Buxoro xonligi taxtiga chiqishi Balx bilan muvozanatni izdan chiqarib yubordi. Bunday vaziyatda xonning jiyani, Balx hokimi Muhammad Muqimxon ham Buxoro taxtiga da'vogarlik qiladi. Shundan so'ng Buxoro xonligi taxti uchun kurash boshlanib, ikki o'rtadagi kurash besh yil davom etadi. Muqimxon otalig'i Mahmudbiy qatag'on ko'magida Balxni xonlikdan alohida qilib, o'z nomiga xutba o'qitadi va tanga zarb ettiradi. Natijada xonlik hududi amalda ikki qismga bo'linib ketadi. Ubaydullaxon mamlakat yaxlitligini ta'minlash maqsadida Balxga, Muqimxonga qarshi yurish qiladi. Ikki o'rtada qonli urushlar boshlanadi. Muqimxon tarafidan nomi yuqorida eslab o'tilgan Mahmudbiy otaliq qo'shinga bosh bo'lib, Amudaryo janubidan Movarounnahr sari bir necha marta yurish qiladi. Ubaydullaxon esa Balxga qarshi kurashga boshchi etib yuz qabilasining sardori Rahimbiy otaliqni tayinlaydi. Bu urush aslida, amaki-jiyan o'rtasidagi taxt talashuvidan ko'ra ko'proq ikki nufuzli o'zbek urug'ining adovatidan iborat bo'lgan [4, 39-40]. Chunki, Subhonqulixon hukmronligining so'nggi yillarida qabila-urug' sardorlarining nufuzi ortib, ashtarxoniylar xonadoni shahzodalari ularning ta'siriga tusha boshlagan edi.

Ubaydullaxon (1702–1711) davrida Balx va Farg'onaning mustaqil bo'lishi, Abulfayzxon davrida esa Samarqandning Rajab Sulton boshqaruviga o'tishi mamlakatning tobora zaiflashib borayotganini ko'rsatar edi. Samarqandda mustaqil xonlikning tashkil topishi xonlikni ichidan yemirgan eng katta omillardan biri bo'ldi. 1722-yilda kenagas urug'ining sardori Ibrohimbiy xonga qarshi chiqib, Samarqandda kuyovi Rajab Sultonni xon deb e'lon qiladi [13, 133]. Rajab Sulton 1723-yil Buxoroga yurish qilib mag'lubiyatga uchraydi. Keyingi yil esa 30 ming kishilik qo'shin yig'ib yana Buxoroga yurish qiladi [13, 134]. Bu yurishlar kutilgan natijani bermagach, Rajab Sulton boshqa yo'l tutishga majbur bo'ladi. U 1724-yilda qozoq sultonlariga bosib olinajak mintaqalardan katta miqdordagi o'lja va'da qiladi va ularni Buxoroga hujum qilishga chorlaydi. Ushbu og'ir vaziyatda qozoqlar Markaziy Osiyoning boy mintaqalariga yurish taklifiga tezda roziliklarini bildiradilar [13, 137-138]. 1724-yilda Rajab Sulton ularning yordami bilan Buxoro shahrini o'rab oladi va uni uch kunlik talon-taroj qilishga buyruq beradi [13, 137-138]. 1725-yil yozida Vobkent viloyatida Abulfayzxon va Rajab Sulton qo'shinlari o'rtasida hal qiluvchi jang bo'lib o'tadi. Jang Rajab Sultonning mag'lubiyati bilan yakunlanadi. Biroq, qozoq-

qo'ng'irot qabilalari Movarounnahrda qolib, yetti yil davomida Samarqand, Buxoro, Shahrisabz va Qarshi viloyatlarini vayron qilib, Hisor va Ko'lobgacha yetib kelishadi [17, 88-89].

Qozoq va qoraqalpoqlarning 1723-yildan 1730-yilgacha davom etgan isyonining asosiy sababchilaridan biri ham Rajab Sultonning yaqin kishisi Shahrisabz hokimi Ibrohimbiy kenagas edi. Buning oqibatida, Abulfayzxon va uning harbiy qo'shini isyonchi kuchlar oldida himoyasiz qolgan edi. Mamlakatda tinimsiz davom etayotgan g'alayonlar natijasi o'laroq hamda o'sha davrda ro'y bergan tabiiy ofatlar (surunkasiga uzoq muddat yomg'ir yog'ishi) sababli haydaladigan yerlarning dehqonchilik uchun yaroqsiz ahvolga kelishi va o'z navbatida aholining katta qismini Samarqand va Miyonqol hududlarini tark etishga majbur etgan [7, 56-57].

Sharqshunos Anke fon Kyugelgenning ma'lumotlariga ko'ra, otaliq lavozimida faoliyat yuritgan Muhammad Hakimbiy isyonchilar va ichki dushmanlar bilan tinchlik yo'lida muzokaralar olib borishi natijasida muayyan muddat davomida barqarorlikni saqlashga muvaffaq bo'lgan. Shu bilan birga, yuqorida nomi tilga olingan Ibodullo xitoy o'z tarafdorlari va boshqa xitoy-qipchoq urug'iga mansub bo'lgan aholi bilan birgalikda Miyonqolda amirga qarshi qo'zg'olon ko'targan va buning oqibatida bir qator shaharlar vayrona holatga tushib qolgan. Bunday vaziyatda Abulfayzxon Ibodullo xitoyning qilmishlariga yarasha jazo berish o'rniga, aksincha, uni devonbegi lavozimiga tayinlagani xalqning Abulfayzxon hokimiyatiga nisbatan noroziligini va unga qarshi borish ruhiyatini keltirib chiqargan [15, 74-79].

Shuningdek, strategik ahamiyatga ega bo'lgan hududlarda ham sulola vakillarining noib bo'lmaganligi ham markazdan uzoqlashish omilini yuzaga keltirgan. Bu paytga kelib, ashtarxoniylar sulolasi ichida xonga tirkak bo'larli yaqin qarindoshlar yo'q edi. Ma'lumki, bir qancha manbalar Abulfayzxonning o'z taxtiga xavf solishi ehtimoli bilan bir nechta o'g'illarini qatl ettirganini tasdiqlaydi. Abulfayzxonning o'zi esa Subhonqulixonning kichik o'g'li bo'lib, unga qadar barcha akalari vafot etgan yoki halok bo'lgan edi [12, 130]. Bu ham xon atrofida tayanch bo'lishi mumkin bo'lgan sulola vakillari bo'lmaganidan dalolat beradi. Natijada, Abulfayzxon o'zbek urug'lari sardorlarigagina tayanishga majbur edi.

Hokimiyatning ashtarxoniylar qo'lidan mang'itlar qo'liga o'tishida yana bir asosiy va muhim omil tashqi siyosiy vaziyat hisoblanadi. Xususan, mamlakat sharqida endigina tashkil topgan Qo'qon xonligi o'z chegaralarini Buxoro xonligining sharqiy hududlari hisobiga kengaytirayotgan va bu omil ikki davlat o'rtasida urushlarning tez-tez bo'lib turishiga olib kelayotgan edi. Shuningdek, Hindistondagi boburiylar sulolasi vakillari bilan aloqalar ancha susaygan, Eronda esa safaviylar bilan mavjud iliq munosabatlar yangi hokimiyat tepasiga kelgan afshorlar (Nodirshoh) bilan yomon munosabatga almashgan edi. Eron shohi Nodirshohning

tashqi siyosiy faoliyati asosan Buxoro xonligini o'z ta'sir doirasiga olishga qaratilgani, o'z navbatida, xonlikda davlat hokimiyatining tubdan o'zgarishiga sabab bo'lgan.

Mamlakatdagi og'ir vaziyat, xonlik sarhadlarining birma-bir qo'ldan ketishi avj olgan bir sharoitda Eronda shakllanib kelayotgan afshorlar sulolasi Eronning shimoliy hududlarini egallashni boshlaydi. Nodirshoh afshor (1736–1747)ning o'g'li Rizoquli ushbu hududlarni egallashga kirishadi. Dastlab Andxo'y, keyin Shibirg'on va unga yondosh viloyatlar egallanadi. Navbat esa «Ummul bilod» (Shaharlar onasi) deb ta'rif etiladigan Balx shahriga yetib keladi. Bu vaqtda Balx noibi ashtarxoniylar Abul Hasanxon edi. Ikki o'rtada sodir bo'lgan jangdan so'ng Rizoquli g'alaba qozonib, Abul Hasanxonni qo'lga oladi va Qandahorda turgan otasi huzuriga yuboradi [14, 194]. Nodirshoh Balxning egallanishidan mamnun bo'lib, o'g'li Rizoqulini turli darajadagi qimmatbaho mukofotlar bilan taqdirlaydi. Bu Rizoqulining harbiy yurish ruhiyatini ko'targan va unga yuqori ishtiyoq bergan.

Amudaryoning janubiy qismidagi hududlar egallangandan so'ng, asosiy e'tibor endilikda xonlik markaziy qismi bo'lgan Movarounnahrqa qaratiladi. Amudaryodan o'tgan Rizoqulini ilk qarshi olgan hudud Qarshi viloyati bo'ldi. Bu davrda Qarshini idora qilayotgan Muhammad Hakimbiy otaliq yordam so'rab Abulfayzxonga murojaat qiladi. Abulfayzxon esa o'z navbatida qoraqalpqlar, qozoqlar va Xorazm xoni Elbarsxon (1728–1740)dan yordam so'rashga majbur bo'ladi [1, 109].

«Firdavs ul-iqbol» asarida bu haqda shunday hikoya qilinadi: «Buxoro xoni Abulfayzxon va Hakim otaliq [Xiva xoni] Elbarsxon va Eshmuhammadbiydin istimdod qildi (yordam so'radi). Ular anga ming kishilik ko'mak yuborib, Elbarsning o'zi izidin og'ir cherik bila yurish qildi. Xon Buxoroga yetishmay, qizilboshiya (eroniylar) Qarshida murojihat xabari eshitib, Abulfayzxon bila yarashib, [iziga] qaytdi» [9, 102-103].

Bu Xiva va Buxoro xonligi birgalikda yagona dushmanga qarshi harakat qilgan kamdan kam holatlardan biri edi. Xivadan katta qo'shin bilan Elbarsxon yaqinlashayotganidan xabar topgan Rizoqulixon orqaga, Balxga chekinishga majbur bo'ladi [14, 194-195]. Shu bilan Buxoro xonligi markaziy qismiga uyushtirilgan dastlabki hujum ko'zlangan natijani bermadi.

Shunday vaziyatda Abulfayzxon Xo'jayi Jo'yoriyni Peshovarda (hozirgi vaqtda esa Pokistonga qarashli shahar bo'lib, u Panjob nohiyasiga qaraydi) turgan Nodirshoh huzuriga qimmatbaho sovg'alar va quyidagi mazmundagi maktub bilan yuboradi: «*Men o'tmish sultonlarining xonadonidanman, falakka ham kuchi yetuvchi o'shal shahriyorga (Nodirshohga) qarshi kurashishga quvvatimiz yetmaydi, bir burchakda duo qilib o'tiribman. Har qachon kelsangiz, mehmonim bo'lgaysiz*» [8, 168]. Bundan anglashiladiki, Abulfayzxon davlat hukmdori bo'lsa-da, u yolg'izlanib qolgan va eng ishongan davlat amaldorlari – otaliq, qo'shbegi hamda

viloyat hokimlari u bilan hisoblashmay qo'ygan. Nodirshoh mazkur maktub mazmunidan ham Buxoro xonligi ichki ahvoli va xonning siyosiy holatidan hamda maqsadidan to'la voqif bo'lgan. U Abulfayzxonga shunday javob xatini yuborgan: «Sizning deganlaringiz rostdir, ammo Elbarsning tanbehi bajarilishi lozim bo'lgan vojib ish bo'lib, u badfe'lga biz jazo beramiz, inshaolloh, Hirot saltanat uyiga kirganimizdan so'ng Balxga, unda esa siz oliy makon va yuksak maqomning ziyofatiga va muloqot rasm-u rusumini ado qilishga boramiz, siz bizga mezbbon bo'lursiz. Ko'nglingizga hech qanday andishaga yo'l bermangki, bizning diqqatimiz sizning mulk-u molingizga qaratilmagandir» [8, 168-169].

Bu bilan Nodirshoh O'rta Osiyo xonliklarini egallash niyatidan qaytmaydi. Xonlikka qarshi ikkinchi hujum 1740-yilda bo'ladi. U Amudaryodan o'tgach, Buxoro hamda Xorazm yo'lida joylashgan Chorjo'yda qo'sh tashlab, u yerda bir muddat qolgan. Uch kun muddat ichida Amudaryo ustida ko'prik soldirdan. Askarlarining yarmi o'rduning harbiy yuki bilan qolgan va qolgan yarmisi shoh bilan yo'lga o'tlanib, Buxoroga bir kunlik masofada joylashgan Qorako'lga yetib kelgan [10]. Nodirshohning navbatdagi yurishlari Buxoro uchun og'ir kechadi. Nodirshoh bu yurishlarida Buxoro xonligi otalig'i Muhammad Hakim va uning o'g'li Muhammad Rahimlar bilan muzokara qildi hamda ular bu jarayonda faol qatnashdilar. Nodirshohning Buxoroga yaqinlashib kelayotganidan qo'rqqan Abulfayzxon darhol Muhammad Hakimni Qarshidan chaqirtirib, unga Nodirshoh huzuriga elchi bo'lib borishini, shohni qahridan tushirib davlatning xarob qilinishiga yo'l qo'ymaslikni topshiradi. Muhammad Hakim katta huquqlar beruvchi shoh yorlig'ini olib Buxoroga jo'naydi, endi u Abulfayzxonning elchisi sifatida emas, balki shohning vakili sifatida kelgan edi [3, 76]. Buxoroga qaytib kelganidan so'ng u o'z qarorgohiga borishni xavfli deb hisoblab, Mir Arab madrasasiga tushadi va madrasaning tevarak-atrofiga qurolli qorovullar qo'yadi. Abulfayzxon otaliqni huzuriga chaqirib keyin umumiy kuch bilan, xalqni qo'zg'atib, eroniylar va ularning tarafdorlariga qarshi chiqmoq uchun harakat qilib ko'radi. Lekin Muhammad Hakimbiy xonning huzuriga bormaydi. Abulfayzxon qattiq sarosima ichida saroyga qaytib ketadi, endi unga Nodirshohga taslim bo'lishdan boshqa hech iloj qolmagan edi [3, 77].

Abulfayzxon mansabdor saroy ahllari bilan birga Buxoroning Tolli Poch darvozasidan chiqib Nodirshoh huzuriga yo'l oladi. O'z navkarlari bilan Nomozgoh darvozasidan chiqqan Hakimbiy otaliq ham o'sha tomonga yo'l oladi. U yo'lning yarmida xonga yetib olib unga qo'shiladi, shu bilan birga xonning xiyonatkor otaliq bilan uchrashuvi jami qoida-tartiblarga muvofiq bir tarzda o'tadi, ya'ni otaliq xon oldida mulozamat bilan qo'l qovushtirib turadi, xon ham, o'z navbatida, otaliqqa e'tibor va shafqat bilan qaraydi. Shundan keyin, xon bilan otaliq birgalashib shoh huzuriga boradilar.

Xon bilan Buxoroning quyidagi amir va beklari Nodirshoh qabulida bo'lishgan va har biri shohga peshkashlar bilan borishgan [6, 282]: Hisor hokimi Muhammad Aminbek, Shahrisabz hokimi Olimbiy kenagas, Qobodiyon hokimi Ya'qubbiy Do'rmaniy, Xatirchi hokimi G'aybullabiy bahrin, Dabusiya qal'asi hokimi Abdusattorbiy, Nurota hokimi Tag'oy Murodbiy barqut.

Nodirshoh bilan Buxoro yaqinida, Zarafshon daryosi bo'yidagi Chor Bakr degan joyda uchrashadilar (*Abdukarim Buxoriy (vafoti 1830-yil)ning yozishicha, oliy darajadagi bu uchrashuv Qorako'lda bo'lgan*) [2, 150]. Nodirshoh Abulfayzxonga iltifot bilan muomala qilib, uning huquqini tan oladi [6, 282]. Mirzo Olim Maxdum Hojining yozishicha, «*Nodirshoh Abulfayzxonning boshiga toji murassa va xal'ati foxira ila malbus aylab, uni «Abulfayzshoh» deb ataydi*» [8, 169]. Xon shoh qarorgohida o'n sakkiz kun bo'lganidan keyin Buxoroga qaytadi [3, 77]. Shuningdek, Nodirshoh va Abulfayzxon o'rtasida qarindoshlik aloqalari ham o'rnatiladi. Shoh Abulfayzxonning bir qizini o'z nikohiga olgan bo'lsa, yana bir qizini esa jiyani Odilshoh ibn Ibrohimga nikohlashga erishgan [8, 169].

Nodirshoh Movarounnahr (Buxoro xonligi) hukmronligini Abulfayzxonning o'ziga topshiradi [8, 169]. Biroq Nodirshoh Buxoro ma'murlari va aholisi bilan faqatgina Muhammad Hakimbiy orqali aloqa qilardi. Chunki shoh unga tamomila ishonch bilan qarar edi. Otaliqqa shoh qo'shini uchun naqd pul, 200 ming eshakka ortilgan bug'doy va boshqa yem-xashak yetkazib berish topshirilgan edi. Shoh qo'shinini to'ldirish uchun Buxoro qo'shinidan o'n ming otliq askar ajratib olingan edi. Hakimbiy otaliqning ukasi Muhammad Doniyolbiy Karmana hokimi qilib tayinlanadi [16, 64]. Muhammad Hakim Nodirshohning ishonchiga sazovor bo'lgan amaldor sifatida Buxoroning o'zida davlatning yuqori mansabida ishda qoladi. Abulfayzxon endi unga qaram bo'lib qolgan edi [3, 77].

Shuningdek, Nodirshoh xonlikdan o'n ikki ming kishini «oq uyli» qilib, Eron hududiga ko'chirgan. Abdulazim Somiyning yozishicha, bu guruh maxsus taftish va tekshirishlar natijasida davlat amaldorlarining eng qudratli vakillariga aloqador odamlardan tuzilgan. Ularga rahbar etib qalmiqlar sardori Rahimqul miroxo'r, unga yordamchi etib esa Hakimbiy otaliqning o'g'li Muhammad Rahimbiy tayinlanadi. Bu katta karvon Mashhadga borganda Rahimqul miroxo'r vafot etgan, shundan so'ng o'n ikki minglik aslzodalardan iborat Mashhadning yangi aholisiga Muhammad Rahimbiy sardor bo'lgan [5, 129].

Eron shohi buncha ko'p kishini «oq uyli» qilganining asosiy sababi shunda ediki, Buxoro xonligida bu vaqtda markaziy hokimiyat susaygan va ko'plab viloyat hokimlari, saroy amaldorlarining nufuzi ortib, Abulfayzxonning ularga ta'siri kamayib ketgan edi. Shu tufayli ham Nodirshoh Abulfayzxongagina tegishli aslzodalarni emas, balki davlat boshqaruviga ta'siri

bo'lgan barcha amaldorlarning oila a'zolaridan bir qismini Eron hududiga ko'chirgan hamda ular orqali Buxoro amaldorlarini nazorat qilishni mo'ljallagan edi. Nodirshoh Muhammad Rahimning hokimiyatni boshqarishga bo'lgan qobiliyatini ko'rib, unga o'z o'g'li kabi yondashadi hamda hokimiyatni egallashda amaliy yordam ko'rsatadi. Xususan, Nodirshoh Muhammad Rahimga o'z harbiy kuchini mustahkamlashi uchun askarlar sonini olti mingdan o'n sakkiz minggacha ko'paytirishiga hamda Muhammad Hakimbiyning vafotidan so'ng uning otaliq lavozimini egallashiga imkoniyat tug'dirib beradi. Mavjud tarixiy manbalarda Nodirshohning Muhammad Rahimga bo'lgan munosabati turlicha izohlanadi. Xususan, Muhammad Rahim Nodirshohning shogirdi deb e'tirof etilsa, ba'zan uni hokimiyatni qonunga xilof ravishda tortib olgan shaxs sifatida baholashadi. Har qanday vaziyatda ham Abulfayzxon hokimiyatining inqirozga yuz tutishiga Muhammad Rahim sababchi deb topiladi.

Xullas, Buxoroda hokimiyatning ashtarxoniylar hukmronligidan mang'itlar vakillariga o'tishida ham ichki, ham tashqi siyosiy omil muhim rol o'ynagan. Xususan, bu jarayonga so'nggi ashtarxoniy Abulfayzxonning davlat boshqaruvi masalalarida ichki ziddiyatlar va o'zboshimchaliklarni o'z vaqtida bartaraf eta olmasligi hamda tashqi siyosiy vaziyatni to'g'ri anglab yetmasligi oqibatlarini ham ta'sir etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Allayeva N. Xiva xonligining diplomatiyasi va savdo aloqalari (XVI-XIX asrlar). T.: Akademnashr, 2019.
2. Arminiy Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. 2-qism. / Rus tilidan tarjima va izohlar muallifi Sirojiddin Ahmad. T.: Info capital group, 2019.
3. Barakayev J. Haydarov P. Buxoro tarixi (eng qadimgi davrdan ulug' oktabr inqilobigacha). – T.: O'qituvchi, 1991.
4. Mir Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. // O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. T.: Fan va texnologiya, 2014.
5. Mirza Abdulazim Somiy. Mang'it sultonlari tarixi yoki Buxoro xonligining inqirozi. / Fors-tojik tilidan Ilhom Sultonov tarjimasi. Sharq yulduzi, 1993. 3-4-son.
6. Mirzo Salimbek. Kashko'li Salimiy. Tavorixi muttaqadimin va muttaaxirin. / Fors tilidan tarjima va izohlar muallifi N.Yo'ldoshev. Buxoro:Buxoro nashriyoti, 2003.
7. Muhammad Ya'qub. Gulshan ul-muluk. / O'zbekiston tarixi. Xrestomatiya. XVI-XIX asrlar. T.: Fan va texnologiya, 2014.
8. Mulla Olim Maxdum Hoji. Tarixi Turkiston. / Arab yozuvidan tabdil: Sh.Vohidov, R.Xoliqova; So'z boshi va izohlar muallifi Sh.Vohidov. T.: Yangi asr avlodi, 2009.

9. Munis va Ogahiy. Firdavs ul-iqbol. / Mas'ul muharrir va turkum muallifi Sh.Vohidov. T.: Yangi asr avlodi, 2010.
10. Schefer Charles. Histoire de l'Asie Centrale par Mir Abdoul Kerim Boukhary – Afghanistan, Boukhara, Khiva, Khokand depuis les dernière années du règne de Nadir Chah, 1153, jusqu'en 1233 de l'hègire, 1740-1818 a. D., Texte persan publié d'après un manuscrit unique, avec une traduction française. – Paris, 1876, Peprint; Amsterdam, 1970.
11. Shodiyev J. Buxoro amirligining tashkil topishi va davlat tuzumi. y.f.n. disser. T., 2008.
12. Zamonov A., Subhonov F. Buxoroning ashratxoniy hukmdorlari. T.: Bayoz, 2021.
13. Абдуррахман-и Тали. История Абулфейз-хана / Перевод с таджикского, предисловие, примечания и указатель А.А.Семёнова. – Ташкент, 1959.
14. Алексеев А.К. Политическая история Тукай-Тимуридов. - С.-Петербургс: С .-Петербургского Университета, 2006.
15. Анке фон Кюгельген. Легитимация среднеазиатской династии Мангитов.
16. История Узбекистана (XVI – первая половина XIX вв.). Ответ. редактор Д.Алимова. – Т.: Фан, 2012.
17. Тулибаева Ж .М. Казахстан и Бухарское ханство в XVIII-первое половине XIX. Алматы, 2001.